XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 30-avgust VI-76-114-8-115-K/24 Muzrabot tumani

Muzrabot tumani mahalliy byudjetining 2024-yil II-chorak daromadlar rejasini oshirib bajarilgan qismi hisobidagi mablag‘larini maqsadli ishlatilishi to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonunining tegishli moddalariga asosan xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. Kun tartibidagi masala yuzasidan tuman hokimligining 2024-yil 14-avgustdagi 02-02/310-sonli xati hamda mutasaddi tashkilotlarning tuman budjetining qo‘shimcha manbalari hisobidan mablag‘ ajratish yuzasidan kiritgan takliflari ma’lumot uchun qabul qilinsin.
2. Muzrabot tumani budjetining 2024-yil II-chorak daromadlar rejasining oshirib bajarilgan qismi hisobidan ajratiladigan mablag‘lar ilovaga muvofiq yo‘naltirilsin.
3. Tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Kushakov)ga ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha tuman mahalliy budjetiga tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish vazifasi topshirilsin.
4. Tuman G‘aznachilik bo‘linmasi (A.Xudoynazarov)ga ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha belgilangan tartibda to‘lovlarni amalga oshirish yuklansin.
5. Ajratilgan mablag‘lar tegishli tashkilot rahbari va bosh hisobchilariga qonunchilikda o‘rnatilgan tartibda samarali va maqsadli sarflanishini ta’minlasin.
6. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi (L.Musayev) zimmasiga yuklatilsin.
7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan kuchga kiradi.

Kengash raisi

ISMAILOV
ABDURASHID
XUDAYAROVICH

Xalq deputatlari Muzrabot tumani
Kengashining
2024-yil 30-avgustdagi
VI-76-114-8-115-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Muzrabot tumani mahalliy budjetining 2024-yil II-chorak rejasidan oshirib bajarilgan mablag‘lari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar to‘g‘risida
MA’LUMOT

№	Mablag‘ ajratilgan tashkilot nomi	Ajratilgan mablag‘ maqsadi	Ajratildi	Ajratilgan mablag'larni maqsadli ishlatilishiga biriktirilgan tashkilotlar
1	UZINFOCOM" MCHJ	E-hrm elektron tizimidan foydalanish uchun	5 656 000	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
2	UZINFOCOM" MCHJ	E-Qaror elektron tizimidan foydalanish uchun	18 000 000	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
3	UZINFOCOM" MCHJ	E-Kengash elektron tizimidan foydalanish uchun	6 600 000	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
4	"UNICON-SOFT" MCHJ	IDO tizimidan foydalanish uchun	17 533 000	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
5	Uzbektelekom	Tuman hokimligining Internet xizmatidan yuzaga kelgan qarzdorlikni to‘lashga	37 887 400	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
6	Axborot kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish markazi	Tuman hokimligining Kompyuterlashtirish markazi (Internet) xizmatidan yuzaga kelgan qarzdorlikni to‘lashga	50 000 000	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
7	CHIROY- MUZRABOT QURILISH X.K	Muzrabot tumani “Yakka tol” MFY binolarini qurilish va ta’mirlashda yuzaga kelgan qarzdorlik uchun	150 000 000	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
8	Madaniyat instituti	Talabalar kontrakt to‘lovi	36 522 661	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
9	“JANUB TERMIZ METAL” mas`uliyati cheklangan jamiyati	Mevali va manzarali daraxt ko‘chatlari olishdan vujudga kelgan qarzdorlikni qoplash uchun	31 411 339	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
9	"NURLI HAYOT TEXNIKA" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT	Qarzdorlik	70 000 000	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
10	"ASLCONTROL" XK	Tuman hokimligi va tuman 2-sektor binosi kirish qismiga turneket o‘rnatish uchun	36 555 000	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
11	Tashkiliy kadrlar guruxi raxbarini rag‘batlantirish	Rag‘batlantirish	8 203 000	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
12	Tuman majburiy ijro byurosi	Boj to‘lovi	7 420 600	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
13	Tuman hokimligi	Qog‘oz sotib olish	3 221 000	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
14	Tashabbusli byudjet jamg‘armasi		205 290 000	Tuman hokimligi xisob raqami orqali
		Jami		**684 300 000**